

**FARG‘ONA VILOYATIDA UMUMIY OVQATLANISH SOHASINING
IQTISODIY VA IJTIMOYIY AHAMIYATI: OG‘ZAKI TARIX
MATERIALLARI ASOSIDA**

Nosirova Dilrabo Ikromjon qizi

FarDU Tarix fakulteti tadqiqotchisi

E-mail: dilraboxxonosirova07@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada Farg‘ona viloyati iqtisodiyotida umumiy ovqatlanish sohasining o‘rni va ahamiyati og‘zaki suhbatlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu sohaning aholi bandligini ta‘minlash, xususan ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratishdagi roli alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Restoran va kafe tarmoqlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar, fermerlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim bo‘g‘ini sifatida baholanadi. Bundan tashqari, umumiy ovqatlanish sohasi turizm, gastronomik tadbirlar va sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini joriy etish orqali jamiyatda ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona viloyati, umumiy ovqatlanish sohasi, bandlik, ayollar va yoshlar, fermerlar, iqtisodiy aloqalar, turizm, og‘zaki tarix

Аннотация:

В статье анализируется роль и значение сферы общественного питания в экономике Ферганской области на основе устных интервью. В ходе исследования показано, что данная отрасль обеспечивает занятость населения, в частности женщин и молодежи. Рестораны и кафе укрепляют экономические связи с местными производителями и фермерами, что делает сферу общественного питания важным звеном регионального экономического развития. Кроме того, отмечается вклад отрасли в развитие туризма, проведение гастрономических мероприятий и внедрение принципов здорового питания, что оказывает положительное социально-экономическое влияние на общество.

Ключевые слова: Ферганская область, общественное питание, занятость, женщины и молодежь, фермеры, экономические связи, туризм, устная история

ANNOTATION:

The article analyzes the role and significance of the food service sector in the economy of the Fergana region based on oral interviews. The study highlights the sector's contribution to employment, particularly in creating job opportunities for

women and youth. Restaurants and cafes strengthen economic ties with local producers and farmers, positioning the food service sector as an essential component of regional economic development. In addition, the sector contributes to tourism growth, gastronomic events, and the promotion of healthy nutrition, thus having a positive socio-economic impact on society.

Keywords: Fergana region, food service sector, employment, women and youth, farmers, economic relations, tourism, oral history

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi, xususan umumiy ovqatlanish sektori alohida e‘tiborga molik bo‘ldi. Farg‘ona viloyatida bu sohaning tez sur‘atlarda o‘shishi nafaqat aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, ayollar va yoshlar bandligini ta‘minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va fermer xo‘jaliklari bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Umumiy ovqatlanish sohasi o‘zining iqtisodiy ahamiyati bilan bir qatorda ijtimoiy hayotda ham muhim o‘rin tutadi. Restoran va kafelar aholi uchun nafaqat ovqatlanish joyi, balki uchrashuvlar, ijtimoiy muloqotlar va madaniy tadbirlar o‘tkaziladigan muhit sifatida xizmat qilmoqda. Bu esa hududiy ijtimoiy faollikni oshirish, turizmni rivojlantirish va madaniy merosni targ‘ib qilishga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, ushbu soha raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta‘sirida yangi talablar va o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Zamonaviy xizmat ko‘rsatish sifati, mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan menyular va sog‘lom ovqatlanish tamoyillarining kengayishi umumiy ovqatlanish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan og‘zaki suhbatlar shuni ko‘rsatadiki, umumiy ovqatlanish sohasi viloyat iqtisodiyotida kompleks rol o‘ynaydi. Bir tomondan, bu soha ayollar va yoshlar uchun bandlik imkoniyatlarini yaratadi, ikkinchi tomondan esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar va fermerlar uchun barqaror bozor vazifasini bajaradi. Shu boisdan umumiy ovqatlanish sektori Farg‘ona viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot davomida Farg‘ona viloyati iqtisodiyotida umumiy ovqatlanish sohasi ko‘plab ish o‘rinlarini ta‘minlaganligi kuzatildi. Bu esa mahalliy aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratdi. Restoranlar va kafelar mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilaridan xom ashyo xarid qilib, mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatladi. Farg‘ona viloyati iqtisodiyotida umumiy ovqatlanish sohasining o‘rni, ayniqsa, og‘zaki suhbatlarda ko‘plab aholining fikrlarida o‘z aksini topgan. Bu soha nafaqat bandlikni ta‘minlash, balki iqtisodiy rivojlanish, turizm va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan bog‘liq muhim aloqalar yaratishga ham yordam

beradi. Quyidagi ogʻzaki suhbatlarda umumiy ovqatlanish sohasining Fargʻona viloyatidagi oʻrni yoritib berilgan:

Fargʻona viloyatidagi rasmiy ishsiz ayollarning aksariyati umumiy ovqatlanish sohasida ish topish nisbatan osonroq boʻlgani, kunbay va ishbay hisobida oylik toʻlanishini aytishgan. Bu haqda koʻplab ogʻzaki suhbatlarda gapirilgan. *Gulnora, 28 yosh, ofitsiant: “Men kollejni tugatgach ish oʻrnimni restoranlarda topdim. Hamshiralik yoʻnalishida oʻqiganman lekin, ish topolmagach, restoranga ofitsiant sifatida ishga kirdim. Bu ish menga nafaqat daromad keltirdi, balki mijozlarga xizmat koʻrsatishda koʻp narsalarni oʻrgandim. Kafe va restoranlar yillar davomida tez rivojlanib, yangi ish oʻrinlarini yaratib kelmoqda. Koʻplab yoshlar, talabalar aynan umumiy ovqatlanish sohasi orqali oʻzlarini moliyaviy jihatdan yaxshilaydi”*¹. Bu misol umumiy ovqatlanish sohasining ayollar uchun ish oʻrinlari yaratishdagi ahamiyatini koʻrsatadi. Lekin keyingi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va umumiy ovqatlanish muassasalariga sezilarli taʼsiri natijasida ixtisoslashuv va professionallikni talab qildi.

Shuningdek, Fargʻona shahri markazida boshqa tuman va qishloqlarga qaraganda, ayniqsa, ayollar uchun xizmat koʻrsatish sohasidagi ish oʻrinlari katta ahamiyatga ega boʻldi. *Zamira Boltaboyeva, 38 yosh, oshpaz: “Men avvaliga uyda taomlar va tortlar tayyorlashni yaxshi koʻrardim, lekin keyin faoliyatimni kengaytirib kichikroq kafe ochmoqchi boʻldim. Oʻzimning oshxona biznesimni boshlaganimdan buyon nafaqat daromad olish, balki boshqalarga ham ish berish imkoniyatiga ega boʻldim. Fargʻonada bu kabi kichik bizneslar juda koʻp, ayniqsa, ayollar uchun katta imkoniyatlar yaratdi”*². Ayollar uchun umumiy ovqatlanish sohasida bir qancha imkoniyatlarni taqdim etilganini koʻrsatadi.

Umumiy ovqatlanish sektori, ayniqsa, mahalliy fermerlar va ishlab chiqaruvchilar bilan mustahkam aloqalar oʻrnatgan holda viloyat iqtisodiyotida yillar davomida muhim ahamiyatga ega hisoblanib keldi. Bir-biri bilan zanjir koʻrinishida bogʻlanib ketgan. Yaʼni mahsulot boʻlmasa umumiy ovqatlanish tarmogʻi bir maromda ishlaymaydi va aksincha umumiy ovqatlanish tarmoqlari mahsulot sotib oluvchi asosiy xaridor hisoblanib, narx navoga ham taʼsir koʻrsatadi. Masalan, *Baxrom Xamraliyev 45 yosh, fermer: Biz beshariqlik koʻplab fermerlar umumiy ovqatlanish sohasidagi restoranlar va kafelarga mahsulot yetkazib beramiz. Restoranlar uchun sabzavotlar va mevalar yetishtiramiz, bu bizga yaxshi daromad keltiradi. Bu sektorda oʻsish boʻlsa, bizning faoliyatimiz ham rivojlanadi*³. “Bundan koʻrish mumkinki, umumiy

¹ Gulnora Qoraboyeva, 28 yosh Fargʻona shahridan.

² Zamira Boltaboyeva, 38 yosh, Fargʻona shahri Behizor koʻchasi 17-uyda yashaydi.

³ Baxrom Xamraliyev 45 yosh, Beshariq tumanidan.

ovqatlanish sohasining mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashi va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Umumiy ovqatlanish sohasida xizmatlarning sifatini oshirish va kengaytirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin. Ko‘plab suhbatlarda bu masala ko‘tarilgan. *Saida Zoirova, 28 yosh, “Traktir” restorani menejeri⁴: “Bizda har doim yangi xodimlarga ehtiyoj bor. Har bir restoran o‘zining xizmatini yaxshilashga harakat qiladi, masalan, yangi taomlar va maxsus menyularni taklif qilish orqali. Bu esa qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratadi. Farg‘onada bu soha o‘shida davom etmoqda va bizga har doim yangi xodimlar kerak bo‘ladi”*. Bu misol umumiy ovqatlanish sohasidagi xizmat ko‘rsatish sifatining oshishi va yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Farg‘ona viloyatidagi umumiy ovqatlanish sohasining iqtisodiy roli, og‘zaki suhbatlar orqali, bandlikni ta‘minlash, yoshlar va ayollar uchun ish imkoniyatlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan aloqalarni mustahkamlash va turizmni rivojlantirish kabi bir qancha muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Suhbatlarda bu sohaning qanday tez rivojlanayotganini va iqtisodiy faollikka qanday ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rish mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Farg‘onaning boy madaniyati va an‘anaviy taomlari turistlarni jalb qiladi, bu esa viloyat iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad keltiradi. Umumiy ovqatlanish muassasalari gastronomik festivallar va tadbirlar o‘tkazish orqali viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Umumiy ovqatlanish sohasida sog‘lom ovqatlanish prinsiplarini joriy etish aholi salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Raqobat kuchayishi natijasida restoranlar va kafelar xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga intilishadi, bu esa mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Ovqatlanish joylari oilalar, do‘stlar va hamkorlar uchun uchrashuv joyi sifatida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

AXBOROTCHILAR RO‘YXATI:

1. Gulnora Qoraboyeva, 28 yosh Farg‘ona shahridan.
2. Zamira Boltaboyeva, 38 yosh, Farg‘ona shahri Behizor ko‘chasi 17-uyda yashaydi.
3. Baxrom Xamraliyev 45 yosh, Beshariq tumanidan.
4. Saida Zoirova, 28 yosh, Farg‘ona shahridan.

⁴ Saida Zoirova, 28 yosh, Farg‘ona shahridan.